

_____ -son
KAFILLIK SHARTNOMASI

_____ sh. 20__ yil “_____” _____

“UMS” MChJ (keyingi o'rinlarda – “OPERATOR”), _____ yildagi _____ -son Ishonchnoma asosida faoliyat yurituvchi _____ nomidan, bir tomondan va _____ (keyingi o'rinlarda – “ABONENT”), Nizom asosida faoliyat yurituvchi _____ nomidan, ikkinchi tomondan hamda _____ (keyingi o'rinlarda – “KAFIL”) uchinchi tomondan, Operator va Abonent o'rtasida tuzilgan _____ yildagi _____ -son Mobil aloqa xizmatlarini ko'rsatish shartnomasi (keyingi o'rinlarda – nt shartnomasi) doirasida, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 259, 292-298-moddalariga muvofiq, ushbu Kafillik shartnomasini quyidagi mazmunda tuzdilar:

1. SHARTNOMA PREDMETI

1.1. Ushbu Kafillik shartnomasiga muvofiq, Kafil Operator tomonidan Abonent shartnomasiga muvofiq taqdim etiladigan Abonentning hisoblarini to'lash (keyingi o'rinlarda – “Hisoblar”) bo'yicha majburiyatlarini bajarish yuzasidan Operator oldida to'liq javobgar hisoblanadi.

2. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

2.1. Kafil Abonent shartnomasi bo'yicha taqdim etiladigan Hisoblar Abonent tomonidan o'z vaqtida, to'liq yoki qisman to'lanmagan taqdirda Abonentning o'rniga to'lovni amalga oshirish majburiyatini oladi.

2.2. Kafil Abonent shartnomasi bo'yicha Abonentning Operator oldidagi majburiyatlarini bajargan taqdirda, Operatorning Abonentdan pul vositalarini undirish bo'yicha barcha majburiyatlari, Kafil Operatorning talablarini qondirgan hajmda, Kafilga o'tadi. Shuningdek, Kafil Abonentdan Operatorga to'langan summaning foizlarini to'lab berishni hamda Abonent tomonidan Abonent shartnomasi bo'yicha o'z majburiyatlari bajarilmaganligi yoki nomuvofiq bajarilganligi yuzasidan yetkazilgan boshqa zararlarni qoplab berishni talab qilishga haqli.

2.3. Operator ushbu Kafillik shartnomasining 2.1-bandi shartlariga muvofiq, Abonent shartnomasi va O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchiligiga binoan Abonentga taqdim etilishi lozim bo'lgan barcha Hisoblar va talablarni Kafilga taqdim etishi mumkin.

2.4. Agar Abonentga uning Abonent shartnomasi bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishi bilan bog'liq da'vo taqdim etilgan bo'lsa, u Kafilni sud muhokamasida ishtirok etishga jalb qilishi shart.

2.5. Abonent shartnomasi bo'yicha Hisoblarni to'lash yuzasidan majburiyatlarini bajargan Abonent bu haqda zudlik bilan, ammo 1 kundan kechikmagan holda Kafilni xabardor qilishi shart.

2.6. Abonent Abonent shartnomasi bo'yicha majburiyatlarini bajarmagan yoki nomuvofiq bajargan taqdirda, Operator Hisoblar, e'tiroz va da'voni Abonentga bermagan holda, bevosita Kafilga taqdim etishi mumkin.

2.7. Agar Abonent bir nechta Kafilga ega bo'lsa, Operator e'tirozlar va da'volarni Kafillardan biriga taqdim etishga haqli, bunda Kafillar Operator oldida solidar tartibda javob beradilar.

2.8. Kafil Operator tomonidan taqdim etilgan Hisoblar bo'yicha to'lovlarni ular olingan vaqtdan boshlab 10 (o'n) kun ichida amalga oshirishi shart.

2.9. Kafil ushbu shartnoma bo'yicha to'lovni o'zini Kafil sifatida tasdiqlash imkonini beradigan istalgan usul yordamida, jumladan shaxsiy hisobvarag'i, plastik kartasi, Operator kassasiga pul to'lash orqali amalga oshirishi zarur.

2.10. Kafil Operator oldidagi to'lov bo'yicha majburiyatlar bajarilganini tasdiqlovchi hujjatni taqdim qilishi shart.

2.11. Kafil o'zining joylashgan manzili va bank rekvizitlari o'zgartirilganligi haqida bunday o'zgarishlar yuz bergan vaqtdan boshlab 5 kun ichida yozma shaklda Operatorni xabardor qilishi shart.

3. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI

3.1. Kafil Abonent tomonidan Abonent shartnomasi bo'yicha majburiyatlarning bajarilmaganligi yoki nomuvofiq bajarilganligi yuzasidan Operator oldida to'liq hajmda javob beradi, jumladan penya to'lash, qarzdorlikni undirish va Operatorning boshqa zararlari bo'yicha sud harajatlarini qoplab beradi.

3.2. Tomonlar ushbu Kafillik shartnomasi bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmaganligi yoki nomuvofiq bajarganligi uchun O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va ushbu Kafillik shartnomasida nazarda tutilgan javobgarlikka tortiladilar.

3.3. Tomonlar yuzaga kelishi mumkin bo'lgan nizolarni faqat kelishuv tartib-taomillari orqali bartaraf etishga imkon qadar harakat qiladilar. Nizoni muzokara o'tkazish orqali bartaraf etishning imkoni bo'lmagan taqdirda, Tomonlar Operatorning joylashgan manzili bo'yicha O'zbekiston Respublikasi sud organlariga murojaat qiladilar.

4. BOSHQA SHARTLAR

4.1. Ushbu shartnomaga barcha o'zgartirishlar va qo'shimchalar ular faqatgina yozma shaklda tuzilib, Tomonlar imzosi qo'yilgan taqdirda haqiqiy hisoblanadi.

4.2. Ushbu Kafillik shartnomasi har bir Tomon uchun bittadan, bir xil yuridik kuchga ega bo'lgan uch nusxada tuzilgan.

4.3. Kafillik shartnomasi u imzolangan vaqtdan kuchga kiradi va ushbu Kafillik shartnomasining 4.4-bandida nazarda tutilgan tartibda bekor qilingunga qadar amal qiladi.

4.4. Ushbu Kafillik shartnomasi Abonent va Kafilning qarzdorligi so'ndirilganidan keyin Abonent va Kafil tomonidan bir tomonlama tartibda muddatidan avval bekor qilinishi mumkin. Bunda, shartnoma bekor qilinishidan ikki hafta avval Tomonlarga yozma xabarnoma jo'natilishi kerak. Abonentning Operator oldida qarzdorligi mavjud bo'lgan taqdirda, Abonent shartnomasining istalgan sabablarga ko'ra bekor qilinishi Kafil tomonidan ushbu Kafillik shartnomasi bo'yicha o'z majburiyatlari bajarmasligi uchun asos hisoblanmaydi.

4.5. Ushbu shartnomada nazarda tutilmagan boshqa barcha holatlarda Tomonlar O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchiligiga tayanadilar.

5. TOMONLARNING MANZILI, BANK REKVIZITLARI VA IMZOSI

«Operator»

«Abonent»

«Kafil»

«UMS» MChJ

Manzil: 100000, Toshkent sh.,
Yunusobod t., A.Temur shox ko'ch., 24
H/r: 20214000300381984001
«Alokabank» AK OPERU, Toshkent sh.
MFO: 00401, **STIR:** 303020732
OKED: 61200, **tel.:** 234-13-64, **faks:**
235-81-60

(nomi)
Manzil: _____

STIR: _____
OKED: _____
H/r _____
bank _____
MFO _____
Tel: _____

(FISh)
Pasport seriya: __ raqam: _____
berildi _____

Manzil: _____

Tel: _____

(FISh, imzo)

(FISh, imzo)

(FISh, imzo)

202 yil “_____” _____
M.O'.

202 yil “_____” _____
M.O'.

202 yil “_____” _____
M.O'.